

**IBTIDOIY DINIY TASAVVURLARDA AYOL TIMSOLINING
SHAKLLANISHI VA DINIY-IJTIMOIIY MAVQEYI**

Berdiyeva Shahnoza Toshmurodovna

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI 2-kurs magistranti.

Annotatsiya. Ushbu tezis ibtidoiy diniy tasavvurlarda ayol timsolining shakllanishini va uning qadimgi jamiyatlardagi diniy hamda ijtimoiy mavqeini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda animizm, totemizm, fetishizm va mifologiya kabi ibtidoiy e'tiqod shakllarida ayol timsolining tutgan o'rni tahlil qilingan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Yunon sivilizatsiyalarining diniy tizimlarida ayol ilohalar — Isida, Ishtar, Demetra — ning ko'p qirrali funksiyalari qiyosiy usulda ko'rib chiqilgan. Paleolit davriga oid "Venera haykalchalari" turkumi arxeologik dalil sifatida tahlil qilinib, bu topilmalarning keng geografik tarqalishi ayol timsolining umumiy ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, matriarxatdan patriarxatga o'tish jarayonida ayolning ijtimoiy va diniy mavqeining qanday o'zgarib borgani Baxofen, Morgan va Engels nazariyalari asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayol timsoli insoniyat diniy tafakkurining dastlabki va eng barqaror elementlaridan biri bo'lib, uning keyingi davrlarda ijtimoiy hayotdan siqib chiqarilishi biologik emas, balki tizimli ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning mahsulidir.

Kalit so'zlar: ibtidoiy din, ayol timsoli, animizm, totemizm, matriarxat, ona ma'buda, Venera haykalchalari, Isida, gender tarixi, qadimgi sivilizatsiyalar.

Abstract. This thesis examines the formation of the female image in primitive religious beliefs and its religious and social status in ancient societies. The study analyzes the role of women in early forms of belief such as animism, totemism, fetishism, and mythology. A comparative analysis is conducted of female deities in the religious systems of ancient Egypt, Mesopotamia, and Greece — including Isis, Ishtar, and Demeter — revealing how broadly and diversely women were represented in the sacred dimensions of these civilizations. Paleolithic "Venus figurines," with over 200 known examples dating back 35,000 years and distributed from the Pyrenees to Lake Baikal, are examined as archaeological evidence of the universal sacred significance of the female image. Drawing on the theories of Bachofen, Morgan, and Engels, the thesis demonstrates how the transition from matriarchy to patriarchy led to a gradual decline in women's religious and social standing. The findings confirm that the

marginalization of women in later societies was not a reflection of biological inferiority, but rather the result of systemic social and economic transformations. The study contributes to the fields of gender history, history of religion, and ethnography, and opens new directions for research into the role of women in the traditional beliefs of Central Asian peoples.

Keywords: primitive religion, female image, animism, totemism, matriarchy, mother goddess, Venus figurines, Isis, gender history, ancient civilizations.

Абстрактный. Данный тезис посвящён исследованию формирования образа женщины в первобытных религиозных представлениях, а также его религиозному и социальному положению в древних обществах. В работе анализируются роль и место женщины в таких формах первобытных верований, как анимизм, тотемизм, фетишизм и мифология. Проведён сравнительный анализ женских божеств древнего Египта, Месопотамии и Греции — Исиды, Иштар, Деметры. Палеолитические «фигурки Венеры» рассматриваются как археологическое подтверждение сакрального статуса женского образа в первобытном сознании. На основе теорий Бахофена, Моргана и Энгельса показано, как переход от матриархата к патриархату повлек за собой снижение религиозного и общественного статуса женщины. Результаты исследования показывают, что маргинализация женщины в позднейших обществах обусловлена социальными и экономическими изменениями, а не биологической неполноценностью.

Ключевые слова: первобытная религия, образ женщины, анимизм, тотемизм, матриархат, богиня-мать, фигурки Венеры, Исида, гендерная история, древние цивилизации

Kirish. Ushbu tezis orqali biz ibtidoiy diniy tasavvurlarda ayol timsolining kelib chiqishi, shakllanishi va uning diniy hamda ijtimoiy hayotdagi oʻrnini oʻrganimiz. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, ayol timsolining diniy tizimlar va ijtimoiy tuzumlardagi oʻrni koʻplab fanlar tarix, arxeologiya, etnografiya, din falsafasi va gender tadqiqotlari kesishmasida joylashgan boʻlib, u haqda yaxlit va qiyosiy koʻrinishda oʻzbek tilida oʻtkazilgan maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Shu jihatdan ushbu mavzu yangi ilmiy xulosalar chiqarishga keng imkon beradi.

Tadqiqotning maqsadi ibtidoiy diniy tasavvurlarda ayol timsolining shakllanish jarayonini, uning turli sivilizatsiyalardagi koʻrinishlarini va ijtimoiy tuzum bilan oʻzaro

bogʻliqligini tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar hamda etnografik materiallar asosida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilangan: ibtidoiy eʼtiqod shakllarida — animizm, totemizm, fetishizm va mifologiyada — ayol timsolining tutgan oʻrnini aniqlash; qadimgi sivilizatsiyalar — Misr, Mesopotamiya, Yunon — diniy panteonida ayol ilohlarning vazifasi va ramziy mazmunini taqqosiy tahlil qilish; matriarxat va patriarxat tuzumlari oʻrtasidagi oʻtish jarayonida ayolning diniy va ijtimoiy mavqeyining oʻzgarishini koʻrsatib berish.

Tadqiqotda tarixiy-taqqosiy, etnografik tahlil va manbashunoslik usullaridan foydalanilgan. Manba bazasi sifatida Eduard Tylor, Emile Dyurkgeym, Yoxann Yakob Baxofen, Luis Genri Morgan, Fridrix Engels, S.A.Tokarev va boshqa olimlarning ilmiy asarlari, shuningdek arxeologik topilmalar va antik davr mualliflarining yozma manbalari asosga olingan.

Tadqiqotning asosiy natijalari

Birinchi natija. Ibtidoiy diniy tasavvurlarda ayol timsoli markaziy oʻrinni egallagan. Animizm, totemizm va fetishizm shakllarida namoyon boʻlgan ibtidoiy eʼtiqodlarda ayol yangi hayot beruvchi, avlodning davom ettiruvchisi va tabiat kuchlari bilan muloqot qiluvchi muqaddas vositachi sifatida qabul qilingan. Eduard Tylorning animizm haqidagi tadqiqotlari (1871) va Emile Dyurkgeymning totemizm tahlili (1912) bu tasavvurlarning umumiy koʻrinishga ega ekanligini koʻrsatadi. Sibir va Markaziy Osiyo xalqlarining anʼanaviy eʼtiqodlarida ayol shamanlar erkak shamanlar bilan teng huquqqa ega boʻlgan, baʼzi hollarda esa ulardan ham kuchli diniy vakillar hisoblangan.

Ikkinchi natija. Arxeologik topilmalar ibtidoiy ongda ayol timsolining muqaddasligi haqidagi xulosalarni moddiy jihatdan tasdiqlaydi. Paleolit davriga oid “Venera haykalchalari” turkumi — hozirgi kunda 200 dan ortiq namunasi maʼlum boʻlib, ularning tarixi 35 000 yilga borib taqaladi, shuningdek, ayol qiyofasini hosildorlik va ona timsoli sifatida tasvirlaydi. Bu haykalchalarning Pireney togʻlaridan Baykal koʻligacha boʻlgan keng hududda tarqalganligi ushbu ramzning universal madaniy ahamiyatini koʻrsatadi. Randall Uaytning tadqiqotlari (2003) bu figuralarning turli madaniy kontekstlarda turli vazifalar bajarganini koʻrsatsa-da, ularning umumiy tuzilishi — hosildorlik belgilarining boʻrttirib tasvirlanishi — ularni birlashtirib turadi.

Uchinchi natija. Qadimgi sivilizatsiyalarning diniy tizimlarida ayol ilohlar koʻp qirrali va kuchli obrazlar sifatida namoyon boʻlgan. Qadimgi Misrda Isida — ona, sehr va himoya timsoli — nafaqat Misr, balki butun Oʻrtayer dengizi havzasida keng

e'zozlanib, Rim imperiyasida ham muhim o'rin egallagan. Apuleyning "Oltin eshak" asarida u tabiatning onasi va barcha dinlarning birlashtiruvchisi sifatida tavsiflanadi. Mesopotamiya sivilizatsiyasida Ishtar sevgi, hosildorlik va urush homiysi bo'lsa, Yunon mifologiyasida Demetra va Afina obrazlari tabiat, hosildorlik, donolik va adolat g'oyalarini o'zida mujassam etgan. Bu qiyosiy tahlil ayol ilohning turli sivilizatsiyalarda qanchalik keng qamrovli funksiyani bajarganini ko'rsatadi.

To'rtinchi natija. Matriarxatdan patriarxatga o'tish jarayoni ayolning diniy va ijtimoiy mavqeini tubdan o'zgartirib yubordi. Yoxann Yakob Baxofenning "Das Mutterrecht" (1861) asari va Luis Genri Morganning "Qadimgi jamiyat" (1877) asarida tahlil qilingan matriarxal tuzumda ayol oila va qabila boshqaruvida hal qiluvchi rol o'ynagan. Fridrix Engels ushbu o'zgarishni xususiy mulkchilik munosabatlarining yuzaga kelishi bilan bog'lab, uni "jahon-tarixiy ma'nodagi ayol jinsining mag'lubiyati" deb atagan. Diniy tizimda esa ona-ma'buda o'rnini erkak ilohlar egallagan; bu jarayon ayolning ijtimoiy cheklanishi bilan parallel ravishda kechgan.

Beshinchi natija. Ayollarning mustaqil ijtimoiy va harbiy tashkilot yaratishga urinishlari tarixda aniq ko'rinishlarini topgan. Antik manbalar — Gerodot va Diodor Siquliy — da tasvirlangan amazonkalar haqidagi ma'lumotlar zamonaviy arxeologiya tomonidan qisman tasdiqlangan: skif va sarmat qabilalari ko'mish joylari tadqiqotlari qurol-yarog' bilan birga dafn etilgan ayol suyaklarini topgan. VIII asrda Vltava daryosi bo'yida ayollar tomonidan qurilgan "Qizlar qo'rg'oni" esa patriarxal tizimga qarshi munosabatning tarixiy ko'rinishi sifatida baholanadi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ayol timsoli insoniyat diniy tasavvurlari tarixida doimiy va markaziy o'rin egallagan. Ibtidoiy e'tiqodlardan boshlab antik sivilizatsiyalarning murakkab diniy tizimlarigacha bo'lgan uzun tarixiy yo'lda ayol — yaratuvchi, homiy, vositachi va iloh — sifatida diniy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Bu timsolning keng geografik va zamoniyl tarqalishi uning universal antropologik ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayolning keyinchalik ijtimoiy va diniy hayotdan siqib chiqarilishi esa iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarning natijasidir, biologik yoki aqliy kamchiliklar bilan emas, balki tizimli ijtimoiy cheklovlar bilan bog'liq.

Ushbu tadqiqot natijalari gender tarixi, din tarixi va etnografiya sohalari uchun muhim nazariy ahamiyatga ega bo'lib, keyingi ilmiy izlanishlar uchun zamin

hozirlaydi. Xususan, O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy e'tiqodlarida ayol timsolining o'rni alohida va keng tadqiqotni talab qiladigan yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. Tylor E.B. Primitive Culture. — London: John Murray, 1871.
2. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life. — London, 1912.
3. Bachofen J.J. Das Mutterrecht. — Stuttgart, 1861.
4. Morgan L.H. Ancient Society. — New York, 1877.
5. Engels F. Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi. — 1884.
6. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. — Moskva: Nauka, 1986.
7. White R. Prehistoric Art: The Symbolic Journey of Humankind. — New York, 2003.
8. Gimbutas M. The Goddesses and Gods of Old Europe. — Berkeley, 1974.
9. Apuleius. Metamorphoses (The Golden Ass). — Loeb Classical Library.
10. Herodotus. Histories. — Loeb Classical Library.